

SUG'URTA KORXONALARIDA SUG'URTA XIZMATLARI TANNARXI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH

Raximov Xoshim Amirqulovich
TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada sug'urta korxonalarida sug'urta xizmatlari tannarxini shakllantiruvchi xarajatlar tarkibi, ularning hisobini takomillashtirish yo'llari va ishchi schyotlar tizimi tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari asosida polis tannarxiga xodimlar ish haqi, amortizatsiya va material xarajatlarini aniq kiritish hamda xalqaro standartlarga mos metodologiya ishlab chiqish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Sug'urta tannarxi, bevosita xarajatlar, bilvosita xarajatlar, amortizatsiya xarajatlari, xodimlar ish haqi, polis tannarxi, ishchi schyotlar.

Аннотация. В статье анализируется структура затрат, формирующих себестоимость страховых услуг в страховых компаниях, пути совершенствования бухгалтерского учета и системы рабочих счетов. По результатам исследования даны рекомендации по корректному включению заработной платы сотрудников, амортизации и материальных затрат в себестоимость полисов, а также разработке методики, соответствующей международным стандартам.

Ключевые слова: Стоимость страхования, прямые затраты, косвенные затраты, амортизационные расходы, заработная плата сотрудников, стоимость полиса, рабочие счета.

Abstract. The article analyzes the structure of costs forming the cost of insurance services in insurance companies, ways to improve their accounting, and the system of working accounts. Based on the results of the study, recommendations are given on the accurate inclusion of employee wages, depreciation and material costs in the cost of policies, as well as the development of a methodology in accordance with international standards.

Keywords: Insurance cost, direct costs, indirect costs, depreciation costs, employee wages, policy cost, working accounts.

Kirish. Sug'urta bozori milliy iqtisodiyotning moliyaviy barqarorligini ta'minlovchi eng muhim sektorlaridan biridir. Sug'urta kompaniyalari aholining va xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy xavflarini qoplash orqali iqtisodiy tizimda risklarni qayta taqsimlash vazifasini bajaradi. Biroq sug'urta xizmatlarining moliyaviy natijalari ko'p jihatdan xarajatlarni boshqarish va tannarx hisobining qanchalik mukammal tashkil etilganiga bog'liq. Shu nuqtayi nazardan, sug'urta kompaniyalarida tannarx hisobini takomillashtirish ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Sug'urta xizmatlari tannarxi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar bir necha yo'nalishda olib borilgan: Iqtisodchi olim Mishkin, F. (2019) "Financial Markets and Institutions" asarida sug'urta kompaniyalari

tannarxining moliyaviy barqarorlikka ta'siri yoritilgan. Skipper, H. & Kwon, W. (2007) "Risk Management and Insurance" asarida sug'urta xizmatlari tannarxi risk baholash bilan uzviy bog'liqligi ko'rsatiladi. Sharipov A. (2022) "Sug'urta bozorida moliyaviy hisobotni takomillashtirish" – milliy tajribada bevosita va bilvosita xarajatlarni ajratish masalalari tahlil qilinadi. Ergashev B. (2021) "Sug'urta korxonalarida boshqaruv hisobi" – xodimlar ish haqi ulushini tannarxga kiritish usullari yoritiladi. Eling, M. & Schmit, J. (2012) – sug'urta kompaniyalari tannarxini risk va kapital talablariga bog'lab o'rgangan.

Ushbu manbalar tahlilidan ko'rinadiki, sug'urta tannarxi hisobida eng muhim muammolar – bu xarajatlarning noto'liq tasniflanishi, davr va xizmat tannarxi o'rtasidagi chalkashliklar hamda xodimlar ish haqi va amortizatsiya xarajatlarini to'g'ri taqsimlashdagi kamchiliklardir.

Tahlil va natijalar. Tannarx – bu sug'urta xizmatini ko'rsatishda sarflangan barcha mehnat, moddiy, moliyaviy va boshqa resurslarning pul ifodasi. Tannarx hisobini chuqur tashkil etish orqali kompaniyalar quyidagi maqsadlarga erishadi:

- ❖ Sug'urta tariflarini ilmiy asosda shakllantirish;
- ❖ Har bir sug'urta turi bo'yicha foydalilik darajasini aniqlash;
- ❖ Ichki nazorat va boshqaruv samaradorligini oshirish;
- ❖ Raqobatbardoshlikni ta'minlash.

Bugungi kunda O'zbekistonda sug'urta xizmatlari tannarxi hisobida ko'proq umumiy xarajatlar yig'indisi e'tiborga olinmoqda, biroq xizmatlar kesimida batafsil tahlil yetarlicha joriy etilmagan. Xalqaro standartlar, jumladan 17-son MHXS "Sug'urta shartnomalari" va 1-son BHXS "Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish" talablariga ko'ra, xarajatlarni bevosita, bilvosita, funksional va davr xarajatlari sifatida aniq tasniflash talab qilinadi.

Sug'urta kompaniyalarida polis tannarxiga quyidagi xodimlar ish haqi ulushi kiritiladi:

- ❖ Sug'urta agentlari va brokerlar (polis sotish bilan bevosita shug'ullanadi).
- ❖ Sug'urta shartnomasi tuzuvchi xodimlar (front-office).
- ❖ Risk baholash bo'limi aktuar va ekspertlari.
- ❖ Da'vo (claims) bo'limi xodimlari (polis xizmat muddati davomida).

Boshqaruv kengashi, moliya direktori va umumiy boshqaruv bo'limi ish haqi esa davr xarajatlari sifatida hisobga olinadi, tannarxga kiritilmaydi.

Sug'urta kompaniyalarida amortizatsiya xarajatlarini quyidagi asoslarga qarab xizmatlar tannarxiga kiritishimiz mumkin.

❖ Ofis binosi va texnika amortizatsiyasi umumxo'jalik xarajatlari sifatida aniqlanadi.

❖ IT-infratuzilma (serverlar, sug'urta dasturi) amortizatsiyasi bevosita sug'urta tannarxiga taqsimlanadi.

❖ Avtotransport vositalari amortizatsiyasi, agar ular sug'urta polisini sotishda yoki da'volarni tekshirishda ishlatilsa, tannarxga kiradi.

Taqsimlash mexanizmi:

$$A_i = \frac{A_{umumiy} \times h_i}{\sum h_i}$$

bu yerda:

- A_i – sug'urta turiga taqsimlangan amortizatsiya,
- A_{umumiy} – jami amortizatsiya summasi,
- h_i – tegishli polis turlari bo'yicha xizmat hajmi.

Sug'urta kompaniyalarida ham boshqa korxonalarga kabi material xarajatlar mavjud bo'lib ular quydagilardan iborat.

Polis tannarxiga kiradigan asosiy materiallar:

Sug'urta polis blankalari, qog'oz, bosma mahsulotlar.

Elektron polislar uchun elektron imzo sertifikatlari.

Ofis sarf materiallari (printer qog'ozi, siyoh, papkalar).

Reklama materiallari (bukletlar, bannerlar, onlayn kontent).

Yuqoridagi xarajatlardan tashqari sug'urta kompaniyalarida quyidagi boshqa xarajatlar ham vujudga kelishi mumkin.

Regulyator badallari (Sug'urta nazorati qo'mitasiga ajratmalar).

Konsalting va audit xizmatlari.

Marketing xarajatlari (polisga mutanosib taqsimlanadi).

Biz tadqiqotimiz davomida sug'urta xizmatlar tannarxini hisobga olishda quyidagi ishchi schyotlar tizimini ishlab chiqdik. Bu ishchi schyotlar sug'urta korxonalarida sug'urta tannarxini yanada aniq hisoblashga xizmat qildi.

Xulosa. Sug'urta kompaniyalarida xizmat tannarxini aniqlash va hisobini takomillashtirish masalasi bugungi iqtisodiy sharoitda strategik ahamiyat kasb etadi. Tannarx hisobining mukammal tashkil etilishi sug'urta korxonasining foyda olish qobiliyati, tarif siyosati, bozor raqobatbardoshligi va moliyaviy barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mavjud amaliyotda xarajatlar ko'pincha umumlashtirilgan ko'rinishda yuritilmoqda, bu esa har bir sug'urta polisi yoki sug'urta turi bo'yicha haqiqiy iqtisodiy samaradorlikni aniqlash imkoniyatini cheklaydi.

Birinchidan, xarajatlarni bevosita va bilvosita, funksional va davr xarajatlariga ajratishning aniq metodologiyasi ishlab chiqilishi zarur. Xususan, sug'urta agentlari, brokerlar, risk baholash bo'limi mutaxassislari va da'vo (claims) xodimlari ish haqi bevosita polis tannarxiga kiritilishi lozim, boshqaruv organlari va umumiy xo'jalik bo'limi xodimlari ish haqi esa davr xarajati sifatida hisobga olinishi kerak.

Ikkinchidan, amortizatsiya xarajatlarini taqsimlashda ilmiy asoslangan mexanizmlardan foydalanish tavsiya etiladi. IT-infratuzilma, transport va ofis jihozlari amortizatsiyasi xizmat hajmiga mutanosib ravishda polis tannarxiga qo'shilishi lozim. Bu yondashuv kompaniyaga aniq xarajatlarni polis turiga qarab to'g'ri taqsimlash imkonini beradi.

Uchinchidan, material xarajatlari bo'yicha normativ bazani kengaytirish zarur. Polis blankalari, elektron imzo sertifikatlari, reklama materiallari, ofis sarf materiallari va boshqa moddiy resurslar uchun aniq limitlar belgilanib, ularning tannarxga kiritilish tartibi normativ hujjatlar bilan mustahkamlanishi kerak.

Toʻrtinchidan, sugʻurta korxonalarida ishchi schyotlar tizimini qayta koʻrib chiqish, bevosita va bilvosita xarajatlar uchun alohida subschyotlar ochish orqali hisobni shaffoflashtirish mumkin. Taklif qilingan 2010–2090 qatoridagi ishchi schyotlar xarajatlarni turkumlash va tahlil qilishda muhim rol oʻynaydi.

Beshinchidan, xalqaro tajribaga asoslanib, faoliyatga asoslangan xarajatlar hisobi (Activity-Based Costing – ABC) metodini joriy etish maqsadga muvofiq. Bu usul polisning hayotiy sikli boʻyicha barcha xarajatlarni funksional jarayonlarga taqsimlash orqali tannarxni aniq koʻrsatadi.

Oltinchidan, sugʻurta kompaniyalarida tannarx hisobi nafaqat ichki boshqaruv uchun, balki regulyator organlar oldida shaffoflikni taʼminlash, xalqaro standartlarga mos hisobotlarni tayyorlash va investorlar ishonchini mustahkamlash uchun ham xizmat qilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Beattie, V. Financial Accounting Theories. – London: Routledge, 2014. – 368 p.
2. Eling, M., Schmit, J. Insurance and Capital Requirements // Journal of Risk and Insurance. – 2012. – Vol. 79, №3. – P. 583–616.
3. Ergashev, B. Sugʻurta korxonalarida boshqaruv hisobi. – Toshkent: TDIU, 2021. – 214 b.
4. Kaplan, R., Atkinson, A. Advanced Management Accounting. – 3rd ed. – New Jersey: Pearson, 2015. – 656 p.
5. Mishkin, F. Financial Markets and Institutions. – 9th ed. – Boston: Pearson, 2019. – 768 p.
6. Sharipov, A. Sugʻurta bozorida moliyaviy hisobotni takomillashtirish. – Toshkent: TDIU, 2022. – 198 b.
7. Skipper, H., Kwon, W. Risk Management and Insurance. – Oxford: Blackwell Publishing, 2007. – 442 p.
8. Swiss Re Institute. World Insurance Report. – Zurich: Swiss Re Ltd., 2021. – 105 p.